

**TABIY GEOGRAFIYANING TAKRORLASH DARSLARIDA
TOPOGRAFIK DIKTANTLARDAN FOYDALANISH**

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

Andijon davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti geografiya yo'nalishi

+998901403566

Annotatsiya; Ushbu maqolada geografiya yo'nalishining muhim bir tarmog'i bo'lgan tabiiy geografiyaning takrorlash darslarida topografik diktantlardan foydalanish bo'yicha fikr-mulohazalar va taklif va tavsiyalar yozilgan.

Kalit so'zlar: Kartashunoslik, topografiya, topografik shartli belgilar

KIRISH

Topografiya so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "Topos" – joy, "grafo" – yozaman, ya'ni joyning tasviri ma'nosini bildiradi. Odatda bunday xaritalar masshtabi nisbatan kattaroq bo'ladi.

Yer yuzasining kichik qismini tasvirlovchi yirik masshtabli (1:200000 va undan kattaroq) xaritalar topografik xaritalar deb ataladi. Mazmuniga ko'ra esa ular umumiy geografik xaritalardir.

1:25000, 1:50000, 1:100000 kabi masshtabli topografik xaritalarni joyda bajariladigan topografik o'lchov ishlari hamda aerosuratlar asosida tuziladi.

Yirik masshtabli bo'lgan topografik xaritalarda katta maydonlar tasvirlanadigan bo'lsa, xarita juda yiriklashib ketadi. Shuning uchun bu turdagi xaritalarni varoqlarga bo'linadi va ular juda ham ko'p varoqli bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda topografiyaga oid bir qancha adabiyotlarni keltirishimiz mumkin. Masalan, geografik xaritalarni puxta o'rganish uchun T.Mirzaliyev, E.Yu.Safarov, A.Egamberdiyev, J.S.Qoraboyevlar tomonidan 2012-yilda yaratilgan "Kartashunoslik" darsligi yordamida dars jarayonlarini olib borish ijobiy samara beradi.

Topografik xaritalarning har bir varog'ida yer yuzasining ma'lum bir kichik qismi tasvirlanadi. Shuning uchun bunday xaritalarda mayda masshtabli xaritalarga nisbatan xatoliklar juda kam bo'ladi, chunki, kichik maydon yuzasi tekislikka yaqin bo'ladi. Xaritaning masshtabi uning barcha qismida bir xil bo'ladi.

Topografik xaritaning har bir varag'i yon tomonlarda meridian, yuqori va pastki tomonlarida parallellar bilan chegaralanadi.

Topografik xaritalarning har bir varag'i kilometrli kataklarga ham bo'lingan bo'ladi. Har bir katakning tomonlari 1000 m (1 km)ga teng qilib olinadi. Binobarin,

xaritalar masshtabiga qarab kattaliklar har xil kattalikda bo'ladi. Agar xarita masshtabi 1:100 000 bo'lsa, katak tomonlari 1 sm, 1:50 000 bo'lsa, 2 sm, 1:25 000 bo'lsa, 4 sm, masshtab 1:10 000 bo'lsa, katak tomonlari 10 sm ga teng bo'ladi. Bundan tashqari xaritaning, xaritaning pastki ramkasidan boshlab yuqori tomonga yo'nalish x bilan, o'ng tomonga gorizontali yo'nalish esa y bilan belgilanib, ularning necha km ga teng ekanligi yozib qo'yiladi. Mana shu raqamlarga qarab, xaritadagi har bir nuqtaning vertikal va gorizontali nechanchi km larda ekanligini aniqlasa bo'ladi.

NATIJALARI VA MUHOKAMA

Davlat geodeziya to'ri tayanch nuqtalari shartli belgisi – to'g'ri to'rtburchakdan iborat. [1]

Tabiiy geografiya kursining takrorlash darslarida topografik diktantlardan foydalanish uchun o'quvchilar quyidagilarga asosiy e'tibor berishi kerak:

-Shartli belgi yoniga yozilgan sonlar o'sha joyning mutloq balandligini ifodalaydi.

-Aholi manzilgohlari nomi ostidagi raqamlar ulardagi xonadonlarning oz yoki ko'pligini bildiradi.

-Sanoat va madaniy binolar, korxonalar, ba'zi zavodlar, elektrostansiya, konlar kabilar topografik xaritalarda masshtabsiz shartli belgilar bilan ko'rsatiladi.

-Gidrografiya ob'ektlari ko'k rangda, maxsus shartli belgilar bilan esa paromlar, ko'priklar va kema to'xtash stansiyalari ko'rsatiladi.

-Relyef topografik xaritalarda gorizontallar bilan ko'rsatiladi. O'simliklar qoplami esa zangori-yashil rang bilan beriladi va boshq.

Masalan, 2022-yil 21-may kuni Anvar va Saida piyoda qarindoshi S.ning uyiga yo'lga chiqishibti. Ular ikki tomonlama yo'nalishga chiqishgandi. Anvar dastlab, _____ (turar joylar va boshqa binolar)dan o'tib, _____ (alohida joylashgan hovlilar)ga kelishdi. So'ng Anvar sharq tomonga burilib, _____ (zavod va fabrikalar) yonidan o'tayotganida _____ (yoqilg'i omborlari)ni ko'rdi va hayratlandi. 1 km dan oshiq chamasi yurgach u _____ (mevazorlar)ga duch keldi. Shu yerda sayr qilgach, mevazordagi _____ (butalar) oralab, o'tib oldi. Yo'lda ketayotib, u _____ (tor izli temiryo'llar) va _____ (mukammalashtirilgan shosse yo'llari)dan o'tib oldi. Anvar _____ (yaxshilangan tuproq yo'llari, trubalar) orqali notanishg bir daryoga yetib keldi. O'sha daryo qirg'og'ida bir kemachi uni _____ (ko'lning) narigi tomoniga eltib qo'ydi. Anvar qarindoshi S.ning uyiga sog'-omon yetib keldi.

Saida esa Anvar yurgan yo'lning g'arb tomoniga burilib, _____ (ko'l) bo'ylab 3 km yurgach, _____ (mashhur yodgorlik)ga keldi. U yerdan 500 m yo'l yurganidan so'ng, qarindoshi S.ning uyiga sog'-omon yetib keldi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish muhimki, tabiiy geografiyaning takrorlash darslarida topografik diktantlardan foydalanish birinchidan shartli belgilarni eslab qolishga,

ikkinchidan nutqini faol rivojlantirib, sayohatga chiqsa hamma geografik ob'ektlarga baho berishga o'rganadi. Bu esa geografiyaning muhim bir shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.G'ulomov, H.Vahobov – 7-sinf O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent-2017
2. 5-sinf o'quv atlas.
3. Internet manbalari.